

TADBIKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA KOMPOTENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Ergashev Oybek Xaydaraliyevich
“University of Business and Science”
“Yashil iqtisodiyot” kafedrası
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning yangicha nazariyasi haqida olib borgan ilmiy tadqiqotlar, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish nazariyasi haqida olimlar qarashlari, oliygohlar ilmiy tadqiqoti natijalari va zamonaviy bilimlar haqida gap ketadi.

Kalit so‘zlar: markentalizm iqtisodiyoti, klassik iqtisodiyot, tadbirkorlik, korxonalar, kichik biznes, diversifikatsiya, globalizatsiya, talab qonuni, bozor iqtisodiyoti, talab va taklif muvozanati;

Аннотация. В данной статье рассказывается о научных исследованиях, проводимых по новой теории развития предпринимательства, взглядах ученых на теорию развития предпринимательства, результатах научных исследований университетов и современных знаниях.

Ключевые слова: торговая экономика, классическая экономика, предпринимательство, предприятия, малый бизнес, диверсификация, глобализация, закон спроса, рыночная экономика, баланс спроса и предложения.

Annotation. This article discusses scientific research conducted on a new theory of entrepreneurship development, the views of scientists on the theory of entrepreneurship development, the results of scientific research at universities, and modern knowledge..

Key words: market economy, classical economics, entrepreneurship, enterprises, small business, diversification, globalization, the law of demand, market economy, supply and demand balance.

Kirish. Butun dunyo bo‘ylab tadbirkorlik bozorida rejalashtirilgan umumiy daromad 2023-yilda 2,60 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu yillik 11,20% ga o'sishi kutilmoqda, buning natijasida 2027 yilga kelib 4,62 milliard dollarlik bozor hajmi kutilmoqda. Hozirgi kunga rivojlangan mamlakatlari (xususan G-20 davlatlari) YaIMining 74,6 fozini, industrial agrar mamlakatlarning YaIMining 45,1 fozini, quyi rivojlangan va iqtisodiy qoloq mamlakatlarning YaIMining 12,6 foizini tadbirkorlik ulushi tashkil etadi. Dunyoning eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya kabi mamlakatlarida tadbirkorlik sohalarini maqsadli va tizimli rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tadbirkorlik va uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda rivojlanish nazariyasi borasida xorijlik yirik iqtisodchi olimlar

Sh.Jozef, X.Bouen, D.Bornshteyn, P.Xartigan, B.Dreyton, G.Dees, M.Yunus zamonaviy olimlardan, J.Boshi, J.Kikal va T. Lyons [6][7][8] kabilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlaridan A.A.Antonova, A.A.Barisheva, B.M.Teplov, M.A.Makarenko, M.A.Zakirov V.V.Kashpur, L.V.Xoxlova, D.M.Shakirova, A.I, Vorotnikov, V.I.Makarevich [9][10][11] va boshqalar tadbirkorlikni rivojlantirish nazariyasi bo'yicha nazariy hamda amaliy muammolari ustida o'z tadqiqotlarini olib borganlar.

Mahalliy olimlarimizdan, A.Vahobov, S.G'ulomov, N.Yuldoshev, N.Maxmudov, A.Soliyev, M.Butaboyev, I.Nosirov, Sh.Zaynutdinov, A.Xoshimov, N.Rasulov, B.Berdiyev, N.Norbayev [12][13] va boshqalar mamlakatimizga tadbirkorlik sohasining kirib kelishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlantirish yo'llari, avfzallik va kamchiliklari bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon tajribasida tadbirkorlik subyektlarining innovatsion boshqarish va rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatini samarali tashkil etish, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish strategiyalari ustida tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyat yo'nalishlarini o'rganish, ularning samaradorligini baholash va boshqaruv hamda rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy tendensiyalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tadqiqotlar doirasida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, tasniflash, mantiqiy fikrlash va dinamik qatorlar kabi zamonaviy metodlardan foydalanilmoqda.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Tadbirkorlik, nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ham rivojlantiradi. Hozirgi kunda barqaror rivojlanishning kaliti sifatida ekologik toza texnologiyalar va ijtimoiy mas'uliyatli bizneslar asosiy omil bo'lmoqda. Tadqiqotlar, tadbirkorlikning innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalar va g'oyalar yaratish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishga katta ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, turli omillarni jamlab, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni birlashtirgan holda rivojlantirish zaruriyati aniqlanmoqda. Tadbirkorlikning rolini kuchaytirish va unga doir ilmiy yondashuvlarni zamonaviy talablar asosida yangilash, bozorning o'sishiga va global miqyosda iqtisodiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Butun dunyo bo'ylab tadbirkorlik bozorida rejalashtirilgan umumiy daromad 2023-yilda 2,60 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Bu yillik 11,20% ga o'sishi kutilmoqda, buning natijasida 2027 yilga kelib 4,62 milliard dollarlik bozor hajmi kutilmoqda. Hozirgi kunga rivojlangan mamlakatlari (xususan G-20 davlatlari) YaIMining 74,6 fozini, industrial agrar mamlakatlarning YaIMining 45,1 fozini, quyi rivojlangan va iqtisodiy qoloq mamlakatlarning YaIMining 12,6 foizini tadbirkorlik ulushi tashkil etadi.

Tadbirkorlik- bu iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishning asosiy

dvigatelidir. Yangi bizneslarni boshlash va mavjud bizneslarni rivojlantirish iqtisodiy faollikni oshirishga va ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Tadbirkorlik-bu innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim omilidir. Yangi g'oyalar va texnologiyalarni bozorga chiqarish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Tadbirkorlik ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sirga ega. Yangi bizneslarni boshlash va mavjud bizneslarni rivojlantirish jamiyatda yangi ish o'rinlari yaratish, daromadlarni oshirish va yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Globalizatsiya va texnologiya taraqqiyoti tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu omillar tadbirkorlik nazariyasini yanada rivojlantirishga va yangi konsepsiyalarni ishlab chiqishga olib keldi. Tadbirkorlikning dolzarbligi, barqaror rivojlanishga ham hissa qo'shishi o'z aksini ko'rsatgan. Ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatli bizneslarni boshlash va jamiyatga foyda keltiradigan loyihalarni amalga oshirish orqali tadbirkorlar barqaror rivojlanishga hissa qo'shishlari isbotlangan iqtisodiy akseomadir.

Klassik iqtisodchilar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish nazariyasiga o'ziga xos qarashlarni shakllantirishgan. Klassik iqtisodchilardan Adam Smit, erkin raqobatni bozorni shakllantiruvchi va tadbirkorlikni rivojlantirishda boshlang'ich, biroq asosiy hamda rad e'tib bo'lmas qadam sifatida ta'riflagan. Smitning fikricha, erkin raqobat bozorni o'zini o'zi tartibga solishga imkon beradi va tadbirkorlarga yangi g'oyalar va imkoniyatlarni aniqlash va ularni bozorga chiqarish uchun rag'batlantiradi. Richard Kantillon "Savdoning asosiy tadbirlari va iqtisodiyoti" kitobida xususiy mulk tadbirkorlarni o'z bizneslarini rivojlantirishga va ularning samaradorligini oshirishga rag'batlantiradi, degan g'oyani ilgari surgan. Klassik iqtisodchilar mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham e'tibor qaratishgan. Bir necha iqtisodiy olimlar g'oyalariga ko'ra, tadbirkorlik mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvni rivojlantirishga yordam beradi va shu bilan iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

Ser Vil'yam Stendli Jivons tadbirkorlikni foyda va xarajatlarni hisoblash qobiliyati sifatida ko'rgan. Uning g'oyalarini asosini, tadbirkorlar o'z bizneslarini rivojlantirishda foyda olish uchun xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirishga harakat qilishadi degan mafkura tashkil etadi. Shuningdek, Jivons tadbirkorlarning bozor talabini tahlil qilish qobiliyatini muhim deb hisoblagan. Yana bir iqtisodiy maktab-markentalizmning ham tadbirkorlikni rivojlantirish nazariyasiga doir o'z g'oyalari mavjud. Biroq, markentalizmning tadbirkorlikka bo'lgan qarashlari zamonaviy iqtisodchilar tomonidan tanqid qilingan, chunki ular davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari aralashuvini va savdo to'siqlarini qo'llashni tarafdorlik qilganlar. Biroq, markentalistlarning tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ba'zi g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Masalan, davlatning infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash orqali tadbirkorlikni rag'batlantirish g'oyasi zamonaviy iqtisodiy siyosatda ham qo'llaniladi.

Garvard iqtisodchilari tadbirkorlikni innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishning asosiy omili deb hisoblashadi. Tadqiqotlar ham yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarni yaratish va ish o'rinlari yaratishda tadbirkorlikning rolini ko'rsatadi. Garvard tadqiqotchilari shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ekotizimni o'rganishga e'tibor qaratadilar. Oliygo'h tadqiqotlariga ko'ra moliyaviy resurslar, texnologik infratuzilma, ta'lim va tadqiqotlar, hukumat siyosati va madaniy omillar kabi omillarni o'z ichiga oladi. Garvard universiteti ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Bunga ko'ra ijtimoiy muammolarni hal qilish va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishda tadbirkorlikning rolini o'rganadi.

Chikago Universiteti iqtisodchilari erkin bozorlarni tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omili deb hisoblashadi. Eng ko'p takrorlangan universiteti tadqiqotlari, kam tartibga solish, raqobatbardoshlik va xususiy mulk huquqlarini himoya qilishning tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Chikago tadqiqotchilari tadbirkorlikni iqtisodiy o'sish va samaradorlikni oshirishning muhim omili deb hisoblashadi. O'rganishlar, resurslarni samarali taqsimlash, yangi g'oyalarni joriy etish va iste'molchilarga yanada yaxshi mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etishda tadbirkorlikning rolini hisso'blab chiqdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Garvard va Chikago universitetlari tadqiqotlari tadbirkorlikni rivojlantirish nazariyasiga o'ziga xos qarashlarni shakllantirishga yordam bergan bo'lsa-da, ularning tadqiqotlari har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Masalan, Garvard tadqiqotchilari ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratsalar, Chikago iqtisodchilari erkin bozorlarni tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omili deb hisoblashadi. Biroq, ikkala universitetning tadqiqotlari tadbirkorlikni rivojlantirish nazariyasini boyitish va uning amaliy qo'llanilishini kengaytirishga yordam beradi. Xulosa va takliflar.

Xulosa. Bizning fikrimizcha, Tadbirkorlik bo'lishi zarur bo'lgan, iqtisodiyotni rivojlantiradigan, yangi ish o'rinlari yaratadigan va milliy farovonlikni oshiradigan asosiy omildir. Tadqiqotlardan ko'rganimizdek, butun dunyo bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining umumiy daromadi 2023-yilda 2,60 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2027-yilga kelib 4,62 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Buning ortidan tadbirkorlik faoliyati, o'zgacha g'oyalar, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar bilan jamiyatni rivojlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish uchun tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati nafaqat iqtisodiy sohalar, balki ijtimoiy va ekologik masalalarga ham ta'sir qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari, yangi ishlanmalarni yaratish orqali ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy etish, jamiyatda barqaror rivojlanish muhitini yaratishda o'z o'rnini topadi. Bunday jarayonlar, iqtisodiy o'sishning barqaror va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Davlatning tadbirkorlik faoliyatiga qo'llab-quvvatlashining yangi shakllarini joriy etish, soha bo'yicha infratuzilmani yaratish va bilimlarni rivojlantirish, moliyaviy resurslar, ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va texnologik infratuzilmaning uyg'un

ravishda integratsiyasini ta'minlash.

Yangi tendensiyalarni tushunib, jahon miqyosidagi iqtisodlashuv va talabga mos ta'lim dasturlarini tashkil etish. Tadqiqotlarga asoslangan yondashuvni ommalashtirish va yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun tajriba almashishlarni rivojlantirish.

Tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun raqobatni rag'batlantiruvchi siyosatni yaratish va noqulay tartib-qoidalardan xalos bo'lish. Davlat tomonidan tadbirkorlar uchun yangi bozorlarni yaratish, ishlovchilarni qo'llab-quvvatlash va foydali sarmoya kiritishga rag'batlantiruvchi sharoitlarni shakllantirish.

Tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalarni yaratish va shuningdek, yangi bozorlarga chiqish jarayonlarini optimallashtirish uchun sharoitlar yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4291-son 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi 17.04.2019y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-443-son "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari" to'g'risida 19.12.2022 y.
3. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlanishini baholash turlar. Yangi O'zbekiston: Innovatsiya, fan va ta'lim// Respublika 56-ilmiy konferensiyasi. 30-sentabr. Toshkent-2023 14-11 b.
4. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining paydo bo'lish tarixi, uning turlari va rivojlanish tarmoqlari. // Innovation in the modern education system: International scientific conference (25th April, 2021) – Washington, USA: Part 5, Issue 1. B- 403-412
6. D. Bornstein. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas – 2005. – B. 88-89
7. S.Teasdale "Making Sense of Social Enterprise Discourses" – 2012. – B. 59
8. J. Gregory Dees. The Meaning of Social Entrepreneurship. – 2016;
9. Александра Лапшина Подходы к оценке социальных результатов для социального предпринимательства 01.02.2017
10. Арбузова Т.Н. Социальная инфраструктура: проблемы и перспективы. –М.: Знание, 2008. – 105 с.
11. Важенин С.Г. Региональные особенности развития социальной инфраструктуры. –М.: Мысль, 2002.– 220 с.
12. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. – "Yashil iqtisodiyot" darslik. B-52
13. A.Madaminov Ijtimoiy tadbirkorlik: Yangi qonun loyihasi haqida – 2020
14. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi ma'lumotlari